



**YUNESKO ishlari bo'yicha  
O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi**

**National Commission  
of the Republic of Uzbekistan for UNESCO**

O'zbekiston, Toshkent, 100084, Amir Temur shoh ko'chasi, 107 B uy / 107 B, Amir Temur Avenue, Tashkent, 100084, Uzbekistan  
tel: (+998-90) 186-06-13 e-mail: info@unesco.uz e-xat: ncu@exat.uz

2022-yil 6-iyul № 130/22

**Fanlar akademiyasiga  
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligiga  
Innovatsion rivojlanish vazirligiga**

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi nomidan o'z hurmatimizni bildiramiz va e'tiboringizga Ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) sohasida faoliyat olib borayotgan yosh olim va olimalarni targ'ib etish bo'yicha YUNESKO/Al Fozan xalqaro mukofoti tanlovi to'g'risidagi ma'lumotni havola etmoqdamiz.

Mazkur mukofot Saudiya Arabistoni va YUNESKO tashkilotining birinchi mukofoti bo'lib, STEM sohasidagi birinchi xalqaro mukofoti hisoblanadi. Ushbu mukofotning asosiy maqsadi yosh iste'dodlarni o'z kasb faoliyatining ilk bosqichida qo'llab-quvvatlash va STEM sohasida tadqiqotlarni davom ettirishlariga ko'maklashishdan iborat. Shuningdek, yoshlarni iqtisodni rivojlantirishga bevosita hissa qo'shadigan ilmiy sohalardagi ishtirokini, ayniqsa, ayol va qizlarni ilmiy savodxonlik va faoliyatga qiziqishlarini oshirishga hissa qo'shish va rag'batlantirishdan iborat.

Ushbu xalqaro mukofot har ikki yilda bir marotaba e'lon qilinib, besh mintaqadan tanlab olingan 5 nafar yosh olim va olimalar uchun taqdim etiladi. Mukofot mablag'i 50,000 AQSH dollariga teng. Mukofotga loyiq nomzodlar xalqaro hay'at tavsiyasi asosida YUNESKO Bosh direktori tomonidan tanlab olinadi. Mukofot tanlovi bo'yicha batafsil ma'lumotni quyidagi havola orqali olish mumkin: <https://www.unesco.org/en/prizes/al-fozan>.

Tanlovda ishtirok etishni istagan nomzodlar quyidagi me'zonlarga mos bo'lishi lozim:

- Mukofot ilm-fan, texnologiya, muhandislik yoki matematika sohasida erishgan yutuqlari, xususan STEM sohasidagi tadqiqotlari, yangi texnologiyalar kashfiyoti mavjud bo'lishi;
- STEM sohasidagi ta'lif, tadqiqotlarning natijalarini, ilmiy ijodi va innovatsiyalari uchun e'tirof etilgan bo'lishi;
- STEM sohasida xalqaro yoki mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shgan bo'lishi;
- Nomzodlar yoshi 40 dan oshmagan bo'lishi lozim.

Tanlovda qatnashish uchun quyidagi havola orqali onlayn tarzda ro'yxatdan o'tishi va nomzodlik ariza varaqalari ingliz yoki fransuz tillarida to'ldirilishi lozim: <https://apply.unescoalfozanprize.org/login>.

Tavsiya etilayotgan nomzod bo'yicha ma'lumot YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi kotibiyatiga taqdim etilishi kerak. Nomzodlar hujjatlari onlayn tarzda 2022-yilning 15-novabr kuniga qadar mukofot kotibiyatiga taqdim etiladi. Tanlovda ishtirok etish uchun olima ayollar nomzodlari tavsiya etilishi qo'llab-quvvatlanadi.

Shu munosabat bilan, tanlovda qatnashishi mumkin bo'lgan nomzodlarni aniqlashda va YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiya kotibiyati bilan maslahatlashgan holda nomzodlarni tavsiya etishda amaliy yordam ko'rsatishingizni so'raymiz.

Ilova: 8 varaq.

Ko'rib chiqishingizni so'raymiz.

**Bosh kotib**

**G.Umerova**